

O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPENENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH

O.A.Yaxshilikova, G.G'.Abdullayeva, Sh.Y.Nahalova

**¹ Sardoba tumani 16-maktab tasviriy san'at va chizmachilik fani
o'qituvchisi,**

² Sardoba tumani 12-maktab musiqa madaniyati fani o'qituvchisi,

³ Sardoba tumani 6-maktab musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7583642>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davr ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchi kasbiy mahoratining o'рни hamda amaliyotda qo'llash xususiyati to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, texnologiya, bilim, ko'nikma, malaka, nutq, kreativlik.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamlı islohotlarnı amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat talab etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko'pgina pedagogik olimlarning ilmiy ishlarida kompetentlik degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan. Kompetentlik- tushunchasi esa, shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatları va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik- mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi demakdir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya musaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni,

muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- * murakkab jarayonlarda;
- * noaniq vazifalarni bajarishda;
- * bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- * kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

Maxsus yoki kasbiy kompetentlik;

Texnologik kompetentlik;

Ektremal kompetentlik;

Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik. Ijtimoiy kompetentlik- ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish. Maxsus kompetentlik- kasbiy- pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati rivojlantirib boorish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, information, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Shaxsiy kompetentlik-izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib boorish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. Texnologik kompetentlik-kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish. Ektremal kompetentlik- favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Muhokama va natijalar. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida qobiliyat tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobilyatli pedagoglarda quyidagi noyob qobilyatlar ko'zga tashlanadi:

-bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish(eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.):

-atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (bir talabning maruzasini eshitgani holda , boshqa talabalarning faoliyatini kuzata olish);

-o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);

-miya faoliyatining boikimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt dam oladi, bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli pedagoglarga xos xususiyat emas);

-nutqi va fantaziyasining boyligi(qobilyatli o'qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);

Xulosa. Ta'lim tizimida tom ma'noda o'quvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o'qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o'quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogic mahorat asoslari hamda kreativlik qobilyatiga ega bo'lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

References:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya pedagogik mahorat. -T: 2002.
2. N.A.Muslimov. Bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchisini kasbiy sh. T.,F 2004.
3. X.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: Kasbiy ta'lim pedagogikasi metodik qo'llanma.-T.2005y
4. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. -T.: Iste'dod, 2008.-180b